

AMIRLARNING SAROYIDA SHAKLLANGAN SHASHAMAQOM VA UNING IJROCHILARI



Rasulov Uktamjon Ulmasovich

Yunus Rajabiy nomidagi O‘z.MMSI
“Maqom xonandaligi” kafedra mudiri v.b

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shashmaqom san’atining Buxoro amirlari saroyida shakllangan jarayonlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda Shashmaqomning tarixiy ildizlari, ijrochilik an’analari va ustoz-shogird tizimidagi o’rni keng tahlil qilinadi. Shashmaqomning saroy hayotidagi madaniy va ma’naviy ahamiyati, hofiz va sozandalar faoliyati hamda zamonaviy davrda uning xalqaro miqyosdagi dolzarbligi haqida ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Shashmaqom, saroy, Buxoro amiri, maqom, ijrochilik, ustoz-shogird, hofiz, sozanda.

Аннотация: В этой статье на научной основе будут освещены процессы, происходящие в искусстве Шашмаком, которое сформировалось во дворце эмиров Бухары. В исследовании подробно анализируются исторические корни Шашмакома, исполнительские традиции и его роль в системе учитель-ученик. Даны научные выводы о культурном и духовном значении Шашмаком в жизни дворца, деятельности Хафиза и созандалов, а также о его международной значимости в современную эпоху.

Ключевые слова: Шашмагом, сарай, эмир Бухары, статус, перформанс, мастер-ученик, Хафиз, созанда.

Abstract: This article will be scientifically based to highlight the processes that occur in the art of Shashmakom, which was formed in the palace of the Emirs of Bukhara. The study analyzes in detail the historical roots of Shashmakom, the performing traditions and its role in the teacher-student system. Scientific conclusions are given on the cultural and spiritual significance of Shashmakom in the life of the palace, the activities of Hafiz and sozandals, as well as its international significance in the modern era.

Keywords: Shashmagom, Saray, Emir of Bukhara, status, performance, master-student, Hafiz, sozanda.

Maqom san’atining ildizlari chuqur tarixiy qatlamlarga borib taqaladi. Ayniqsa, XVII asr oxiri va XIX asr boshlarida ushbu san’at turi xalq musiqasi bilan o’zaro ta’sirga kirishib, o’zbek musiqa madaniyatining serqirra va betakror ko’rinishlarini yuzaga keltirdi. Turli xonliklarda shakllangan mahalliy musiqiy maktablar, cholg’ular va uslublar maqomning rang-barangligini ta’minlagan bo’lsa, og’zaki ijrochilik an’anasi uning asliyatini saqlab qolishda hal qiluvchi rol o’ynadi. Shashmaqom o’zbek mumtoz musiqiy merosining eng yuksak cho’qqilaridan biri sifatida XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirlarining saroy hayoti bilan chambarchas bog’liq holda shakllangan. Saroy muhitida Shashmaqom nafaqat musiqiy san’at namunasi, balki davlat ramzi sifatida ham ahamiyat kasb etgan (Yuldashev, 2025). Amirlarning homiyligi tufayli Shashmaqom saroy marosimlarida, diniy va dunyoviy tadbirlarda muntazam ijro etilib, xalqning estetik tarbiyasida muhim o’rin tutgan.

Metodologiya: Maqola tayyorlashda tarixiy hujjatlar, maqomshunos olimlarning ilmiy ishlari va og’zaki ijodiy an’analarga asoslangan yozma manbalar o’rganildi. Ilmiy izlanishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tarixiy yondashuv – Shashmaqomning shakllanishiga oid tarixiy manbalar tahlil qilindi.

2. Qiyosiy tahlil – Shashmaqomning Buxoro saroyidagi rivoji boshqa hududiy maqom tizimlari bilan taqqoslandi.

3. Kuzatish – bugungi kunda Shashmaqom ta'lim jarayonida qanday o'qitilayotgani o'rganildi.

4. Og'zaki an'ana – ustoz-shogird tizimida shakllangan tajribalar ilmiy asosda tahlil qilindi [3.26-b.]

Adaiyotlar tahlili: Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, saroy san'atkorlariga Shashmaqomni oddiy bazmlarda, to'y-marosimlarda ijro etish taqiqlangan. Bu holatni O. Matyoqubov Amir Olimxonning maqom an'analari muqaddas sanab, ularning obro'sini saqlash maqsadida bunday tartibni joriy qilgan, deb izohlaydi.

Otanazar Matyoqubov o'zining “Maqomot” asarida Amir Muzaffarxon, Amir Abdulaxadxon va Amir Olimxonlarning musiqa san'atiga bo'lgan alohida e'tiborini alohida ta'kidlaydi. Xususan, Amir Muzaffarxon Buxoroda maxsus ***“Shashmaqom maktabi”***ni tashkil etib, malakali hofiz va sozandalarni tarbiyalash ishini yo'lga qo'ygan. Uning o'g'li Abdulaxadxon esa “Ojiz” taxallusi bilan she'rlar yozgan adabiy iste'dod sohibi sifatida tanilgan.

Natijalar: Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Shashmaqom Buxoro saroyida musiqiy-ma'naviy hayotning asosiy qismiga aylangan. Saroy hofizlari va sozandalari ijrochilikning eng yuksak namunalarini namoyish qilganlar. Shashmaqom oltita maqom tizimi asosida mukammallashgan bo'lib, ular – Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroqdir. Har bir maqomning o'ziga xos bo'limlari – Saraxbor, Talqin, Nasr, Ufar hofiz va sozandalarning mahoratini sinovdan o'tkazuvchi vosita bo'lgan (Karimova, 2025)

XIX asrda Buxoro amiri saroyi tarkibida yuzdan ortiq mashhur san'atkor faoliyat olib borgan. Shu davrda saroy tasarrufida piyoda sarbozlardan iborat maxsus harbiy musiqa jamoasi ham tashkil etilgan bo'lib, u xalq orasida “Bolobomchilar” nomi bilan mashhur bo'lgan. Tadqiqotchilar Yunus Shukrullaev va Davron Baxronov ma'lumotlariga ko'ra, mazkur guruh navkarlarni ruhlantirish, turli harbiy mashqlarni hamda bayram marosimlarini musiqiy jo'rlik bilan bezash vazifasini bajargan. “Bolobomchilar” tarkibi juda keng bo'lib, har bir 700 kishilik bo'linmada 14 nog'orachi, 14 naychi (fleyta ijrochisi), 2 dulchi (turk barabaniga o'xshash cholg'u ijrochisi), 4 surnaychi va 6 karnaychi xizmat qilgan. Ularning barchasiga maxsus harbiy kiyimlar berilib, 35 tanga ila 60 tangagacha oylik maosh tayinlangan (oddiy sarbozning maoshi esa 20 tanga bo'lgan). Harbiy yurishlarda ular bayroqdordan keyin safning old qismida harakatlangan.

Saroy va harbiy bo'linmalarda xizmat qilgan san'atkorlarning moddiy hamda maishiy ta'minoti amirning shaxsiy mablag'i hisobidan qondirilgan. Ularga kiyim-kechak, kuniga uch mahal ovqat hamda qulay xonadonlar ajratilgan. Ayniqsa, Shashmaqom ustozlari amirlar tomonidan katta hurmat va ehtiromga sazovor bo'lgan. Ularning xizmatlari tilla buyumlar, qimmatbaho zarbof cho'ponlar hamda turli sovg'alar bilan qadrlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, saroy xofizlari va ularning oilalari uchun ham amir mablag'idan maxsus “rotifa” ta'minoti yo'lga qo'yilgan. Bunda har kuni oilaning soniga qarab uylariga non, asal, qaymoq, shirmoy kulcha, turli xil shirinliklar, shuningdek, tushlik va kechki ovqat uchun mazali taomlar maxsus xodimlar orqali yetkazib berilgan. Ba'zi xofizlarga esa saroyda xizmat qilganidan so'ng, o'z uyida tunash huquqi ham berilgan. Saroy san'atkorlarining ko'pchiligi Buxoroning “Eshoni Pir”, “Toziyon” va “Gavkushon” kabi mahallalarida istiqomat qilgan.

Shu asosda aytish mumkinki, amir Olimxon davlat boshqaruvida iste'dodli san'atkorlarga otasi amir Abdulaxadxon singari alohida e'tibor qaratishga intilgan. Aynan mang'it amirlarining qo'llab-quvvatlashi va xurmat-ehtiromi tufayli “Buxoro Shashmaqomi” bugungi kungacha yetib kelgan. O'sha davrda nota yozuvi mavjud bo'lmaganiga qaramay, ustoz-shogird an'anasi orqali maqomlarning asliyatini saqlanib, XX asr avlodlariga omon-eson yetib kelishi ham ana shu homiylik siyosati samarasidir.

Muhokama: Shashmaqom saroy hayotida nafaqat musiqiy san'at, balki ijtimoiy-ma'naviy omil sifatida ham ahamiyat kasb etgan. Amir saroyida o'tkazilgan musiqiy majlislar xalqning estetik tarbiyasi va ruhiy kamolotiga hissa qo'shgan (Borieva & Burieva, 2022). Saroydagi ijrochilik maktablari keyinchalik konservatoriya tizimining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Bugungi

kunda Shashmaqom UNESCOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, xalqaro miqyosda keng targ'ib qilinmoqda [7.1005-b.]

Amir saroyi qoshida mashhur hofiz va sozandalar to'plangan bo'lib, ular orasiga iste'dodli yoshlar turli viloyatlardan tanlab olinib, tajribali ustozlarga shogird sifatida birlashtirilgan. Shogirdlar 2–3 yil davomida ustoz qo'lida ta'lim olib, Shashmaqom yo'llarini mukammal o'zlashtirgach, saroy xofizlari rahbari Ota Jalol hamda boshqa san'atkorlar ishtirokida imtihon topshirgan. Faqat ijrosi yuqori baho olgan shogirdlarga saroy ansambli tarkibiga qabul qilingan. Ushbu jarayonlarda ko'pincha Amir Olimxonning o'zi ham shaxsan qatnashgan.

Saroy san'atkorlari, asosan, Shashmaqom sho'balari va ularning usullarini chuqur o'rganish, ularni mukammallashtirish, shuningdek, qat'iy tartib-qoidalarga rioya qilish ustida faoliyat yuritganlar. Shashmaqomning ashula qismini Ota Jalol, cholg'u mushkilot qismini esa tanburchi Ota G'iyos talabalarga o'rgatgan. Ansambl tarkibida tanbur va doyradan tashqari afg'on rubobi, sato, qo'biz kabi milliy cholg'ular ham qo'llanilgan.

Saroyda nafaqat erkak hofiz va sozandalar, balki ayollardan tashkil topgan "Sozanda" ansambli ham faoliyat yuritgan. Ular qo'shiq, raqs va cholg'u ijrochiligini birlashtirgan holda Arkdagi xonimlar davrasida xizmat ko'rsatgan. Amirlik hukmdorlari ushbu jamoalarga moddiy va ma'naviy jihatdan homiylik qilib, ularning ijodiy faoliyati uchun qulay sharoit yaratganlar.

Saroy sozandalari Amir Olimxonning onasi — Eshon oyim (asl ismi Davlatbaxt) tasarrufida bo'lgan bo'lib, ular O'rdada tashkil etiladigan ayollar bazmlari, mehmondorchilik marosimlari hamda xonimlarning davra suhbatlarini bezashda faol ishtirok etganlar. "Sozanda" jamoasining repertuari xalq marosim qo'shiq-raqslari, yakkaxon va jo'r ijro namunalari, shuningdek, Shashmaqomning turli tarona va ufar yo'llari hamda "Buxorcha" turkum qo'shiqlari bilan boyitilgan.

Ularning dasturlari an'anaviy tartibda amalga oshirilgan: avval vazmin va lirika ohangidagi asarlar ("Ey bodaparaston", "Az sarat gardam", "Boshingdan aylanay" kabi) ijro etilgan, so'ngra esa sho'x va jozibali xarakterga ega bo'lgan xalq qo'shiqlari ("Labat kand", "Man sadqayi tu", "Bugun oqmoqda yoshim dona-dona") kuylangan. Ushbu ijrolardan keyin qo'shdoyra raqsi boshlanib, unda ikki yoki to'rt doyradast "Nog'ora" usulida zarb berib, yakka raqqosa qayroq va zang ostida raqs ijro etgan.

"Sozanda" ijrosida raqs harakatlari alohida estetik qimmatga ega bo'lgan: qo'l ishoralarining nafisligi, qosh-ko'z o'yinlari, tabassum, mujgonlarning latofati va oyoqlarning nozik harakatlari raqsga o'ziga xos go'zallik baxsh etgan. Shu bilan birga, "muxammasxonlik" an'anasi ham muhim o'rin tutib, unda muxammasxon va raqqosa o'zaro dialog tarzida aytishuvni davom ettirgan.

Saroyning "xos" bazmlarida, asosan, Shashmaqomning "Soqinoma" va "Ufar" sho'balari asosida yaratilgan kuy va qo'shiqlar ijro etilgan bo'lib, ular "Buxorcha" turkum raqslari bilan uyg'unlashgan. Raqs ijrosida liboslarga katta e'tibor qaratilgan. Oq va qizil ranglar ustuvor bo'lib, ular sevgining umid va iztiroblarini ifodalovchi ramz sifatida qaralgan. Raqqosalar oq burma ko'ylak, zarrin kashtali lozim va shippak yoki kavsh kiygan, peshonaga tillaqosh bog'langan, bilaklarda oltin bilaguzuk, quloqlarda buxorcha "shivirma" sirg'alar taqilgan. Zarduzi liboslar, uzun sochchilvir va nafis peshonabog'lar raqsni yanada jozibador qilgan.

"Sozanda" ansambli ijrochiligi saroy bazmlarining badiiy-estetik darajasini yuksaltirgan, xalq musiqasi va raqs an'analarini saroy muhitiga uyg'unlashtirishda muhim o'rin tutgan.

Xulosa. Shashmaqom o'zbek xalqining musiqiy tafakkuri, ma'naviy qadriyatlari va estetik dunyoqarashini o'zida mujassam etgan ulkan madaniy merosdir. Buxoro amirlarining saroyida mukammal shaklga ega bo'lgan bu san'at og'zaki an'ana orqali keyingi avlodlarga yetib kelgan. Bugungi kunda Shashmaqom milliy musiqa madaniyatining ajralmas qismi sifatida rivojlanishda davom etmoqda. Uni chuqur o'rganish, zamonaviy ta'lim jarayonlariga integratsiya qilish va xalqaro miqyosda keng targ'ib etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Ulmasovich, R. U. (2025). O'zbek mumtoz musiqasi merosining milliy va

- umumbashariy qadryatlari. *France-Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education*, 1(3), 8-13.
2. Yuldashev, M. U. (2025). Sharq musiqa madaniyatining pedagogikasi va uning yoshlar tafakkurida aks etishi. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15389746>
 3. Mamatqulov, M. M. (2025). Yoshlar tafakkurini rivojlantirish va ma'naviyatini oshirishda o'zbek milliy musiqa san'atining o'rni. *Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education (Great Britain)*.
 4. Karimova, M. (2025). Shashmaqom cholg'u qismlarining ijrochiligi. *Modern Science and Research*, 4(3), 1002–1008.
 5. Borieva, K. R., & Burieva, K. R. (2022). Мақом орындаудағы ән дауыстары: Певческие голоса в исполнении мақомов. In *XXI ғасырдағы түркі халықтарының ұлттық орындаушылық өнері: зерттеу* (p. 244).
 6. Yuldasheva, F. D. (2020). Инструмент народа – дутор. *Проблемы современной науки и образования*, (7 (152)), 106-108.
 7. Matyakubov, Sh. B. (2022). Достижения и недостатки макомного образования с использованием современных технологий в традиции наставничества. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (171)), 92-94.